

ABDULLA QAHHORNING “BEMOR” HIKOYASIDA XALQ MAQOLLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Usmonova Zarina Habibovna

Buxoro davlat universiteti Ingliz tilshunosligi

kafedrasi katta o'qituvchisi

Email: z.h.usmonova@buxdu.uz

Hikmatulloyeva Aziza Shermat qizi

Lingvistika(ingliz tili) mutaxassisligi

I-bosqich magistratura talabasi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasida qo‘llangan xalq maqollarining leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, “Osmon yiroq, yer qattiq” hamda “Yo‘g‘on cho‘ziladi, ingichka uziladi” maqollarining badiiy matndagi semantik yuklamasi ochib beriladi va ularning ingliz xalq maqollari bilan qiyosiy jihatlari yoritiladi. Ushbu maqola ingliz va o‘zbek xalq maqollarining leksik-semantik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: xalq maqollari, leksik-semantik tahlil, Abdulla Qahhor, “Bemor”, qiyosiy lingvistika.

Kirish. Xalq maqollari tilning eng qadimiy va barqaror birliklaridan biri bo‘lib, xalqning asrlar davomida shakllangan hayotiy tajribasi va milliy tafakkurini mujassamlashtiradi [1, 18]. Badiiy adabiyotda maqollar asar mazmunini lo‘nda va ta’sirchan ifodalashga xizmat qiladi. Abdulla Qahhor ijodida xalq maqollari realistik tasvir va ijtimoiy tanqidni kuchaytiruvchi muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi [2,42].

Asosiy qism. “Osmon yiroq, yer qattiq” maqolining leksik-semantik tahlili. “Osmon yiroq, yer qattiq” maqoli o‘zbek xalq og‘zaki ijodida insonning nihoyatda chorasiz, yordamga muhtoj holatini ifodalovchi maqollardan biri hisoblanadi.[1,73] Ushbu maqolda “osmon” va “yer” leksemalari ramziy-makoniylar obrazlar sifatida qo‘llanilib, umidsizlik va najotsizlik semasini kuchaytiradi.

“Bemor” hikoyasida mazkur maqol bemorning og‘ir ahvoli bilan bog‘liq holda ishlatilgan bo‘lib, qahramonning na moddiy, na ijtimoiy tayanchi borligini ochib beradi. Yozuvchi bu maqol orqali jamiyatdagi befarqlik va inson taqdiriga loqayd munosabatni tanqid qiladi.[2,45-46] Mazkur maqol ingliz tilidagi “Between a rock and a hard place” iborasi bilan semantik jihatdan uyg‘un bo‘lib, har ikkisi ham muqarrar qiyinchilik holatini ifodalaydi. [3,112]

“Yo‘g‘on cho‘ziladi, ingichka uziladi” maqolining semantik talqini “Yo‘g‘on cho‘ziladi, ingichka uziladi” maqoli jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik va kuchli-kuchsiz munosabatlarini ifodalovchi xalqona hikmat hisoblanadi.[4,96] “Yo‘g‘on” va “ingichka” so‘zlari metaforik ma’noda qo‘llanilib, jamiyatdagi qudratli va ojiz qatlamlarni ifodalaydi.

“Bemor” hikoyasida ushbu maqol bemorning zaif ijtimoiy mavqeini ochib berib, ijtimoiy adolatsizlikni fosh etadi. Abdulla Qahhor mazkur maqol orqali kuchsiz inson har doim ko‘proq zarar ko‘rishini kinoyaviy ruhda tasvirlaydi. [2,47] Ingliz tilidagi “The weakest goes to the wall” maqoli mazmunan ushbu fikrga yaqin. [3,118]

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qahhor “Bemor” hikoyasida xalq maqollaridan mohirona foydalanib, qahramon ruhiy holatini va jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni chuqur ochib bergan. Tahlil qilingan maqollar asarda g‘oyaviy-estetik yuklamaga ega bo‘lib, milliy tafakkur va universal insoniy muammolar uyg‘unligini namoyon etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rahmonov N. O‘zbek xalq maqollari va matallari. – Toshkent: Fan, 2005. – 512 b.
2. Qahhor A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1987. – 335 b.
3. Spears R. English Proverbs and Sayings. – New York: McGraw-Hill, 2005. – 352 p.
4. Mirzayev T. O‘zbek folklori va badiiy adabiyot. – Toshkent: Universitet, 2010. – 256 b.
5. Rakhmatova, M. (2016). DISCUSSION ON VALUES, CULTURE, AND LANGUAGES. In International Scientific and Practical Conference World science (Vol. 2, No. 11, pp. 40-42). ROST. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=27198684>
6. Habibovna, U. Z. (2023). Rey Bredberining “Marsga Hujum”(“The Martian Chronicles”) Asari Tarjimasida Leksik Xususiyatlar. *Miasto Przyszłości*, 32, 354–357.
7. Usmonova, Z., & Quvvatova, D. (2021). The features of artistic functions in scientific fantasy (using the example of Ray Bradbury and Isaac Asimov’s works). *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*.
8. Usmonova, Z., & Nurulloyevna, I. U. (2024). THE LIGUISTIC ANALYSIS OF TERMINOLOGY RELATED TO CRAFTS IN THE STORY OF “A ROSE FOR EMILY” BY WILLIAM FAULKNER. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 5(46), 99-102.

9. Habibovna, U. Z. (2022). The Implementing Author's Vivid Speculation of the Technologically Advanced Era in the "I Robot" By Isacc Asimov. Eurasian Research Bulletin, 7, 63-65.

10. Naimova, A. M., & Baxronova, B. D. (2025). THE PECULIAR FEATURES OF MYTH MAKING TOOL IN PROSE. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 3(35), 66-69.

11. Djalilova, Z. (2022). СИМВОЛИЧЕСКИЕ ЗНАЧЕНИЯ ФИТОНИМОВ В ПОЭЗИИ М.ДРАЙТЕНА. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 8(8).
извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4623

